



**MAVZU: ICHKI ISHLAR ORGANLARINING TEZKOR BO'LINMALARI
TOMONIDAN AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SODIR
ETILADIGAN EKSTREMIZM BILAN BOG'LIQ JINOYATLARNI FOSH
ETISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI**

Hoshimov Ulug'bek Muhiddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Oliy ta'limdan keyingi
ta'lim fakulteti tayanch doktorantura doktoranti, kapitan

Ekstremistik guruhlar yangi tarafdorlarni yollash uchun raqamli platformalardan foydalanishga katta urg'u berishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, forumlar, chat xonalari va video o'yinlar radikallashuv quroliga aylanib, ekstremistik guruhlar yetakchilariga taqlid qilish va foydalanuvchilarni ushbu tashkilotlarga jalb qilish uchun chatbotlar kabi sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishmoqda.

Yevropaning rivojlangan davlatlari sirasiga kiruvchi AQSh, Fransiya, Italiya, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi hamda Osiyo qit'asining nufuzli davlatlaridan Singapur, Malayziya va boshqa davlatlar ham axborot – telekommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etiladigan ekstremizm bilan bog'liq jinoyatlardan xoli emas. Ular mazkur turdagi jinoyatlarni oldini olish va fosh etish borasidagi bir qator samarali tajribalardan foydalanib kelishadi.

Germaniyada bu tartib 2017-yil 1-oktyabrda "Netzwerkdurchsetzungsgesetz" (Tarmoqni qo'llash to'g'risidagi) qonun (NetzDG) asosida nazorat qilinadi, qonunning maqsadi ijtimoiy tarmoqlarda nafrat jinoyati va boshqa jinoiy kontentning tarqalishiga qarshi kurashishga qaratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad so'z erkinligi bilan qamrab olinmaydigan va shuning uchun demokratik jamiyatda tinch-totuv yashashga katta xavf tug'diradigan obyektiv jinoiy tarkibni darhol olib tashlashni nazarda tutadi. "NetzDG" mexanizmlari xizmat ko'rsatuvchi provayderlarni noqonuniy kontentni o'chirish uchun avvalgidan ko'ra ko'proq mas'uliyatni oshirdi va yuqori jarimalar qo'llash imkonini berdi. Qonun 2 milliondan ortiq foydalanuvchisi bo'lgan ijtimoiy media platformalarini "aniq noqonuniy" kontentni 24-soat ichida va barcha noqonuniy kontentni joylanganidan keyin 7 kun ichida o'chirishga majbur qiladi yoki maksimal 50 million evro jarimaga tortiladi. O'chirilgan kontent haqidagi ma'lumotlar kamida 10 hafta davomida



saqlanishi kerak va platformalar har olti oyda noqonuniy kontent bilan ishlash bo'yicha shaffoflik hisobotlarini taqdim etishi shart ekanligi qat'iy belgilangan.

Bundan tashqari Tatariston Respublikasi ham o'z amaliyotida bir qator terroristik va ekstremistik tahdidlarga qarshi kurashib kelmoqda. O'zining boy tajribasi asosida Tatariston Respublikasi Kiberxavfsizlik Markazi tomonidan yangicha dastur "Avalanche" maxsus dasturini ishlab chiqqan bo'lib, ushbu dastur sun'iy intellekt asosida ishlab, bir vaqtning o'zida taqiqlangan diniy mazmundagi kontentni aniqlash bilan bir qatorda uni bloklaydi va unga murojaat qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilib berish imkoniyatigi ega. Bu esa maxsus xizmat xodimlariga bir qator imkoniyatlar yaratib beradi.

Isroil va AQShda ekstremizmga qarshi kurashda fuqarolik jamiyatining terrorizmga qarshi kurashishda ishtirok etishiga, dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishga ustuvor ahamiyat beriladi, xususan: fuqarolarni tarbiyalash; fuqarolarning faolligini rag'batlantirish; fuqarolarni jamoat xavfsizligi va huquq-tartibotini himoya qilish bo'yicha tadbirlarga jalb qilishni o'z ichiga oladi. Isroil hukumati aynan fuqarolik jamiyatini davlat bilan hamkorlik qilishga undash orqali ichki muhitni sog'lomlashtirishga intiladi. Bu esa o'z navbatida yod g'oyalarning fuqarolar ichida tarqalishini oldini oladi.

Yuqorida bir qancha dunyoning rivojlangan davlatlari tomonidan foydalanib kelinayotgan maxsus dasturlar va ulardan foydalanishni tartibga soluvchi qonun normalarini tahlil qilgan holda, hozirgi bosqichda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat degan xulosaga kelamiz:

- terrorizm va ekstremizmning zamonaviy ko'rinishlariga qarshi muvofiqlashtirilgan va samarali harakatlarni amalga oshirishning eng muhim sharti sifatida xalqaro huquqiy bazani yaratish;
- ekstremizmga qarshi kurashuvchi xalqaro aksilterror markazlarini shakllantirish;
- fuqarolarning jangarilar safiga qo'shilib ketishining oldini olish bo'yicha ishlarni kuchaytirish;
- terrorchilik va ekstremistik tashkilotlar faolligi yuqori bo'lgan mamlakatlarning terrorizmga qarshi adliya tizimiga ilg'or jinoiy va protsessual standartlarni joriy etish uchun yangi ekspert platformalarini ishlab chiqish;



International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from New York, USA

Website: econfseries.com

2nd August, 2025

- terroristik va ekstremistik jinoyatlarni ochishda sudyalari va prokurorlarning samarali xalqaro hamkorligiga to'sqinlik qilayotgan o'zaro ishonchni oshirish, siyosiy irodani mustahkamlash, byurokratik va texnik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha birgalikdagi ishlarni davom ettirish;
- axborot sohasida ekstremizm ko'rinishlariga chek qo'yish: islomga qarshi targ'ibot, yollash uchun foydalaniladigan internet resurslarini blokirovka qilish;
- qurolli to'qnashuvlarning asosiy manbalari bo'lgan mamlakatlar va mintaqalarda ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilash.

Ushbu muammolarga javoban hukumatlar turli qonunchilik tashabbuslarini ishlab chiqmoqda va amalga oshirmoqda. Biroq, milliy xavfsizlikni ta'minlash va so'z erkinligini himoya qilish o'rtasidagi muvozanat zaifligicha qolmoqda. Haddan tashqari senzura jamoatchilik noroziligini kuchaytirishi va radikallashtirishga hissa qo'shishi mumkin.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan ekstremizmga qarshi samarali kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda erkin targ'ibotlarga yo'l qo'ymaslik uchun terrorchilik xurujlarini yoritishda axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biridir. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ekstremistik guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni minimallashtirish uchun terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlar miqdori cheklanishi kerak. Ekstremistik kontentni avtomatik aniqlash va filtrlash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash, shuningdek, ekstremist va terrorchilar tomonidan internetdan foydalanishning yangi tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni muntazam moliyalashtirish muhim element hisoblanadi.

Ijtimoiy jihat ham alohida e'tibor talab qiladi. Ekstremistik targ'ibot ta'siriga tushib qolgan shaxslarning profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo'lmoqda, bu esa yoshlar o'rtasida radikallashtirish darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, fuqarolarni ekstremistik tarkibni aniqlashda ishtirok etishga, tahdidlarga qarshi kurashishda ularga yordam berishga undash lozim.



Bundan tashqari, onlayn aloqalar hujumlarni rejalashtirish va amalga oshirishni osonlashtiradigan holatlar mavjud bo'lib, "Facebook", "TikTok", "Twitter" va "YouTube" kabi ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik kontentni tarqatishning asosiy kanallariga aylanib bormoqda. Bunday materiallar raqamli makonni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish yoki zaiflashtirish zarurligi haqida jamoatchilik muhokamasiga sabab bo'ladi. Biroq, ekstremistik guruhlar yollash uchun ijtimoiy platformalardan foydalanishda davom etmoqda, radikallashtirishga moyil bo'lgan yoshlar ularning asosiy maqsadli auditoriyasiga aylanadi.

Jahon hamjamiyatida internetdan foydalangan holda amalga oshiriladigan jinoiy faoliyatga qarshi kurashning yagona qonuniy kuchga ega bo'lgan ko'p tomonlama hujjati hozirda 2001-yilda qabul qilingan "Yevropa Kengashining Kompyuter jinoyatlari to'g'risida"gi konventsiyasidir (Budapesht konventsiyasi deb ataladi). Konventsiya Yevropa Kengashiga a'zo davlatlar, shuningdek uni ishlab chiqishda ishtirok etgan, lekin Yevropa Kengashiga a'zo bo'lmagan davlatlar tomonidan imzolanishi uchun ochiqdir. Xususan, AQSh, Yaponiya, Kanada, Janubiy Afrika va boshqa bir qator noyevropa davlatlari tomonidan mazkur hujjat imzolangan. Konventsiya kompyuter jinoyatlarining tasnifini o'z ichiga oladi va jinoyatchi va jabrlanuvchi turli mamlakatlarda bo'lgan vaziyatlarda alohida davlatlar huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik mexanizmlarini batafsil tavsiflaydi.

Ikkinchi muammo shundaki, aksariyat Internet protokollari va texnologiyalari AQShda ishlab chiqilgan. Domen nomi va IP-manzilni boshqarish korporatsiyasi Amerika hukumati ishtirokida yaratilgan va menejment bo'limlari, asosiy xodimlar va dunyodagi eng mashhur tarmoq xizmatlarining hisoblash quvvatlari masalan, "Google" (qidiruv tizimi, Gmail, "YouTube" video hosting i va boshqalar) AQShda joylashgan. AQShda "Microsoft" (eng mashhur operatsion tizim, "Bing" qidiruvi, "Skype" telefoniya tizimi va boshqalar), "Facebook" (eng yirik ijtimoiy tarmoq), "Amazon" va boshqa tarmoqlarning provayderlari joylashgan bo'lib, ulardan ma'lumotlar olish yoki ular bilan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilgan ekstremistik va terroristik jinoyatlarni fosh etishda hamkorlik qilishda bir qator to'siqlar vujudga keladi. Shunga ko'ra, ushbu tizimlardan foydalanuvchilar



haqidagi ma'lumotlar Amerika kompaniyalari va razvedka idoralari ixtiyorida qolmoqda.

Xususan AQShda diniy ekstremizmga qarshi kurashishning yetakchi davlat tashkiloti FBI hisoblanib, u radikalizatsiya jarayonida ishtirok etgan shaxslarni aniqlash va ularni oldini olish uchun murakkab tizimlar, nazoratlar va operatsiyalarni amalga oshiradi, ushbu tashkilotning ekstremizm bilan bog'liq holatlarga qarshi kurashishdagi qonuniy asoslari sifatida "Patriot Act" (AQSh Vatanparvarligi haqidagi qonun) 2001-yil 11-sentabr kunidagi teraktlaridan so'ng qabul qilingan ushbu qonun huquq-tartibot organlariga ekstremizmga qarshi kurashda keng vakolatlar berdi. Unga ko'ra, federal agentliklar shubhali shaxslarni kuzatish, moliyaviy operatsiyalarni tekshirish va axborot-kommunikatsiyalarni monitoring qilish, kiberjinoyatlarga qarshi choralar ko'rish huquqiga ega bo'lishadi. Shuningdek "USA Freedom Act" (AQSh erkinligi to'g'risidagi qonun)da – Patriot Actning ba'zi qoidalarini yumshatib, fuqarolarning maxfiylik huquqlarini kuchaytirgan. Bundan tashqari "Countering Violent Extremism (CVE) Program" (Zo'ravon Ekstremizmga qarshi kurash dasturi)da AQSh hukumati tomonidan radikallashtirishning oldini olish va ekstremistik mafkuralarga qarshi targ'ibot olib borish uchun besh bosqichdan iborat bo'lgan dastur ishlab chiqilgan bo'lib bular:

- Jamoatchilik safarbarligi: Mahalliy aholi vakillari, shu jumladan sobiq davlat idoralari vakillari, jamoat guruhlar va agentliklarini jalb qilgan holda dastur ishtirokchilarining funksiyalarini muvofiqlashtirish;
- Imkoniyatlar ta'mini: Jamoatchilikka jalb qilingan, yoshlarga mo'ljallangan turli xil maxsus ta'lim, o'qitish va bandlik dasturlarini ishlab chiqish;
- Ijtimoiy ta'sir: yoshlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar, maktablar, ko'cha targ'ibotchilari, jamoat guruhlar, diniy tashkilotlar, huquqni muhofaza qilish organlari va boshqa tashkilotlar jinoyat guruhlariga aloqador shaxslar va ularning oilalariga, jamiyat va zarur xizmatlar o'rtasida ko'priklar vazifasini bajarib, ularga yordam qo'lini cho'zish orqali mo'tadillashtirish;
- Bostirish: Jinoyatchilikka qarshi kurash tizimi idoralari, shuningdek, mahalliy tashkilotlar, maktablar va jamoatchilik vakillari tomonidan salbiy xulq atvordagi yoshlarni yaqindan nazorat qilish yoki kuzatib borish kabi rasmiy va norasmiy ijtimoiy nazorat choralarini qo'llash kabi choralar belgilangan.



AQShda faoliyat yurituvchi “Jahon siyosati instituti” ekstremizmga qarshi kurashish bo'yicha hukumat fuqarolar bilan birgalikda amalga oshiradigan chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni taklif qiladi. Ekstremizmga qarshi kurashning ushbu axborot-qidiruv (yoki axborot-razvedka) shakli, uning tashabbuskorlarining fikricha, samarali bo'ladi. Sabibi shuki, ayni kunlarda shaxsni vizual kuzatishdan ko'ra uni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali kuzatish shaxs to'g'risida ko'proq ma'lumot olishda samarali bo'lib bormoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali sodir etilayotgan ekstremizmga qarshi samarali kurashish uchun kompleks yondashuv zarur. Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda erkin targ'ibotlarga yo'l qo'ymaslik uchun terrorchilik xurujlarini yoritishda axloqiy me'yorlarni ishlab chiqish ustuvor vazifalardan biridir. Bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari va ekstremistik guruhlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni minimallashtirish uchun terroristik va ekstremistik tashkilotlar tomonidan olib borilayotgan operatsiyalar haqidagi ma'lumotlar miqdori cheklanishi kerak. Ekstremistik kontentni avtomatik aniqlash va filtrlash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini integratsiyalash, shuningdek, ekstremist va terrorchilar tomonidan internetdan foydalanishning yangi tendensiyalarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlarni muntazam moliyalashtirish muhim element hisoblanadi.

Ijtimoiy jihat ham alohida e'tibor talab qiladi. Ekstremistik targ'ibot ta'siriga tushib qolgan shaxslarning profilaktika va reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish zarur bo'lmoqda, bu esa yoshlar o'rtasida radikallashtirish darajasini pasaytirishga yordam beradi. Shu bilan birga, fuqarolarni ekstremistik tarkibni aniqlashda ishtirok etishga, tahdidlarga qarshi kurashishda ularga yordam berishga undash lozim.

Bundan tashqari, onlayn aloqalar hujumlarni rejalashtirish va amalga oshirishni osonlashtiradigan holatlar mavjud bo'lib, “Facebook”, “TikTok”, “Twitter” va “YouTube” kabi ijtimoiy tarmoqlar ekstremistik kontentni tarqatishning asosiy kanallariga aylanib bormoqda. Bunday materiallar raqamli makonni tartibga solish bo'yicha chora-tadbirlarni kuchaytirish yoki zaiflashtirish zarurligi haqida jamoatchilik muhokamasiga sabab bo'ladi. Biroq, ekstremistik guruhlar yollash



uchun ijtimoiy platformalardan foydalanishda davom etmoqda, radikallashuvga moyil bo'lgan yoshlar ularning asosiy maqsadli auditoriyasiga aylanadi.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. "Netzwerkdurchsetzungsgesetz" // <https://www.fsm.de/wissen/a-bis-z/netzwerkdurchsetzungsgesetz-netzdg> // (murojaat sanasi:01.05.2025).
2. "Network Enforcement Act" // https://en.wikipedia.org/wiki/Network_Enforcement_Act // (murojaat sanasi:01.05.2025).
3. A.N.Silaeva va I.M.Usmanov "Противодействие экстремизму в условиях информатизации общества" // <https://cyberleninka.ru/article/n/protivodeystvie-ekstremizmu-v-usloviyah-informatizatsii-obschestvaprotivodeystvie-ekstremizmu-v-usloviyah-informatizatsii> // Журнал "Уголовно-правовые науки" // В-168-181 (murojaat sanasi:01.05.2025).
4. Kravsov D.Yu. "Практика противодействия экстремизму в разных странах" // <https://cyberleninka.ru/article/n/praktika-protivodeystviya-ekstremizmu-v-raznyh-stranah> // Журнал "Административное право и практика административных органов" // 2019-г. В-22-27. (murojaat sanasi:01.05.2025).
5. "Patriot Act" // https://www.justice.gov/archive/ll/what_is_the_patriot_act.pdf // (В.1-4). (murojaat sanasi:25.04.2025)
6. "USA Freedom Act" // <https://www.congress.gov/114/bills/hr2048/BILLS-114hr2048eh.pdf> // В-86 (В.1-121). (murojaat sanasi:25.04.2025)
7. "Countering Violent Extremism" // <https://sgp.fas.org/crs/homesec/R42553.pdf> // (В.1-29). (murojaat sanasi:25.04.2025)
8. "The Institute of World Politics" // https://en.wikipedia.org/wiki/The_Institute_of_World_Politics // (murojaat sanasi:28.04.2025).